

## **IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA LEKSIK TAKRORLAR**

*G'ayratova E'zoza Akmaljon qizi*

*Guliston davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi  
3-bosqich talabasi*

### **ANNOTATSIYA**

Iqbol Mirzo she'riyatida badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanilgan. Shoir lirikasining takrorlarga boyligi, ayniqsa, leksik takrorlarning mahorat bilan qo'llanilganligi she'ning ta'sir kuchini yanada oshiradi. Iqbol Mirzo she'riyatidagi badiiy takrorlar ohangdoshlikni ta'minlagan, tasvirning ifodaliligini oshirgan, mazmun va shakl uyg'unligini hosil qilgan.

**Kalit so'zlar:** Badiiy tasvir vositalari, badiiy takror, takror, anafora, mukarrar, takrir, epifora, juft va takroriy so'zlar, epifora usuli, tovush takrori.

### **KIRISH**

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga ahamiyat qaratilgan. Jumladan, she'riy asarlarda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati hamma asrlarda ijodkorning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Ma'lumki, badiiy tasvir vositalari she'rlarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirliroq ifodalanishiga, lirik timsollarning yorqinroq g'avdalantirilishiga, misralar bandlarining musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Mumtoz adabiyot tarixi yana shundan dalolat beradiki, badiiy tasvir vositalari shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil sa'natlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarini jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Takror – badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o'quvchilarning diqqatini tortish, uni bo'rttirib ko'rsatish uchun badiiy asarlarda foydalanadilar. Ohangdor, ta'sirchan va jozibali qilish uchun ishlatiladi. Asosan, tinglovchining tushunishiga osonlik yaratadi. Takrorning barcha turlari ko'rinishlari singari leksik takrorlar ham o'z ifoda shakliga va tasvir usuliga ega. Badiiy matnda leksik birliklar turli shakllarda namoyon bo'ladi va fikr talabiga ko'ra xilma-xil vazifalarni ado etadi. Lug'aviy birliklar badiiy tasvirning muhim vositasidir. Ammo

ularning badiiy matnda qo'llanish darajasi, badiiylikni ifodalash imkoniyatlari turli-tuman.

### NATIJALAR

Iqbol Mirzo she'riyatida badiiy tasvir vositalari o'ziga xos jilolanadi. Ayniqsa, shoir she'rlaridagi badiiy takrorlar vositasida fikr teranroq ifodalangan, she'r g'oyasi va shakli o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlangan. Ifodalanayotgan tushunchalar takror so'zlar vositasida obrazli qiyofa aks etgan va she'rdagi ohangdorlik ta'minlanishiga xizmat qilgan hamda musiqiylik o'zgacha namoyon bo'lgan.

Iqbol Mirzo she'riyatida ham takrorlarning go'zal namunalarini uchratamiz. Leksik takrorlar she'r tasirchanligini ta'minlaydi. Bunday ta'sirchanlik shoir she'rlarida **anafora, mukarrar, takrir, epifora** takrorlari vositasida namoyon bo'lgan.

*Sen chiroyli qiz eding,*

*Sen chiroyli kularding.*

*Sal xunukroq bo'lsayding,*

*O'zirniki bo'larding.*

Iqbol Mirzo yuqorida keltirib o'tgan bandda leksik takrorning *anafora* usulidan mohirona foydalangan. Shoir so'zlarning takrori yordamida lirik qahramonga murojaat qilgan. "Sen chiroyli" takrori she'riy misraning dastlabki bandida takrorlangan. Takrorlarning bu turi, she'riy misralarning boshida ohangdosh so'zning takrorlanib kelishidir.

Tovonimdan sochimgacha uzun og'riq

Og'riq bormi chorasizlikdan ham ortiq.

Yuqorida keltirilgan misrada o'g'lining tuzalishiga umid qilayotgan ona obrazi gavgdalantirilgan. Takrir og'riq so'zi yordamida yuzaga kelgan.

Takrir arabcha "takror" so'zidan olingan bo'lib, u she'riy asarda so'zning turli shakldagi takroridan iborat. Ushbu musralarda jangga so'zi ikki o'rinda qo'llangan, bu esa she'rdagi asosiy g'oya "jangga" so'ziga singdirilmoqchi bo'lganligini anglatadi.

*Kimdir mening o'g'limni*

*Erkalatib, suyardi.*

*Mittigina qo'llarini,*

*O'pib -o'pib qo'yadi.*

Iqbol Mirzo bu she'rida *mukarrar* dan foydalangan. Mukarrar badiiy san'atlarning takror usullaridan biri bo'lib, bunda takroriy so'zning qaytarilishi kuzatiladi. Mukarrar so'zi "qayta-qayta", "ust-ustiga" ma'nolarni ifodalaydi. Mukarrar takroriy so'zning misra, bayt yoki bandda takrorlanishidir. Ma'lumki, juft va takroriy so'zlar alohida-alohida tushunchalardir. Juft so'z bir turkumga oid ikki so'zning takror

qo'llanilishi natijasida yuzaga keladi. Bunda qo'llangan takroriy so'z shu misraning o'zida, bayt yoki bandda takrorlanishi mumkin. Shuningdek misra, bayt, bandda ikki xil shakldagi takroriy so'z qo'llanilishi ham mukarrar takrorini yuzaga keltiradi. Bunda keltirilgan "o'pib-o'pib" takrori yordamida she'rning mazmun mohiyati bo'rttirib ko'rsatilmoqda.

Yo'g'-u borimga bois borliqsan, sevgi  
 Yagona yordam yolg'iz yorliqsan, sevgi  
 Yuragimni tars yorgan lazzatsan, lazzat  
 Ongimdagi abadiy og'riqsan, sevgi.

Iqbol Mirzo yuqorida keltirib o'tgan she'ri orqali takrorning *epifora* usulidan foydalangan. Epifora misralar oxiridagi tovush, so'z yoki so'z birikmasi takroridan iborat. Epifora qat'iy tizimli takror bo'lib, misrada kelish o'rniga ko'ra anafora ziddir. Chunki anafora misra boshidagi so'z yoki so'z birikmasi takrori bo'lsa, epifora misra oxiridagi til birligi takroridir. Epifora takrorning boshqa turlari singari hozirgi zamon o'zbek she'riyatida keng qo'llanilmoqda. Misralarda keltirilgan "sevgi" so'zi epifora takrorini yuzaga keltirgan. Bu esa she'riy misralarning o'ziga xos jozibasini ta'minlagan.

### MUHOKAMA

Iqbol Mirzo ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy - siyosiy, falsafiy - axloqiy, ma'rifiy tarbiyaviy, muommolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan leksik takrorning rang - barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qaratilgan.

### XULOSA

Iqbol Mirzo o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biridir. Shoir she'riyati takrorlarga boyligi, badiiy san'atlar va uslubiy vositalarning keng qo'llanilganligi bilan ajralib turadi. Takror vositasi shoir she'riyatining g'oyaviy pishiqligi, badiiy mukammalligi, o'ziga xos so'z qo'llay olish mahoratini namoyon qilgan. Shoir she'rlarida badiiy tasvir vositalarini mahorat bilan qo'llagan, ayniqsa, badiiy takror mohirona qo'llanilgan bo'lib, ularning semantik-stilistik xususiyatlari Iqbol Mirzo ijodining o'ziga xosligini belgilaydi. Iqbol Mirzo she'riyatidagi badiiy takrorlar ohangdoshlikni ta'minlagan. Ta'sirchanlikni oshirgan, mo'jizaviy ma'no yuklagan. Misra yoki bandlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlagan, tasvirning ifodaliligini oshirgan, mazmun va shakl uyg'unligini hosil qilgan shoir she'rlarida takrorlar yordamida she'rning shakli emas, asliy ma'nosini yetkazgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqbol Mirzo. Tanlangan she'rlar. – Toshkent, 2002.

2. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: “O‘qituvchi”, 1995. – B. 61.
3. Shofqarov A.M. O‘zbek tilida badiiy takror. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019. – B. 118.
4. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – B. 160.
5. Hojiahmedov A. She’r san’atlarini bilasizmi? – T.: Sharq, 2001. – B. 96.
6. Hojiyev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar. – T.: O‘zfanakadnashr, 1963. – B. 146.